SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

Yuristning huquqiy matnlarda sun’iy intellektdan foydalanishi

Nurmatov Islomiddin Sadriddin o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-bosqich talabasi

islomnchik@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan hujjatlarda qonunga nisbatan ziddiyatlar mavjud bo‘lsa, bunga kim javobgar ekanligi masalasi yoritildi. Bundan tashqari, sun’iy intellektga berilgan shaxsiy ma’lumotlarning uchinchi shaxslarga ma’lum bo‘lishi va boshqa shaxslarga tarqalib ketishi masalasi va natijada shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishi yuz berishi ko‘rib chiqildi. Qolaversa, bunday matnlarda mualliflik huquqi masalasi ham yoritildi. Xalqaro tajribani o‘rganib, O‘zbekiston qonunchiligiga qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar berildi.

Kalit so‘zlar

sun’iy intellekt, huquqiy matn, yurist, advokat, sudya, mualliflik huquqi, advokatlik siri, kiberjinoyat, shaxsiy ma’lumotlar, maxfiylik, javobgarlik.

Abstract

This article examines the issue of liability when documents generated by artificial intelligence contain provisions that contradict existing legislation. It also explores the risks associated with personal data provided to artificial intelligence systems being disclosed to third parties or disseminated to unauthorized individuals, potentially resulting in violations of the right to privacy. Furthermore, the article addresses issues of copyright protection in AI-generated texts. Based on an analysis of international experience, the article puts forward proposals for introducing amendments and additions to the legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords

artificial intelligence, legal document, lawyer, attorney, judge, copyright, attorney-client privilege, cybercrime, personal data, confidentiality, liability.

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос ответственности в случаях, когда документы, созданные искусственным интеллектом, содержат положения, противоречащие действующему законодательству. Кроме того, анализируются риски разглашения персональных данных, предоставленных системам

искусственного интеллекта, третьим лицам и их распространения среди посторонних лиц, что может привести к нарушению неприкосновенности частной жизни. Также в статье рассматриваются вопросы авторского права на тексты, созданные с помощью искусственного интеллекта. На основе изучения международного опыта выдвигаются предложения по внесению дополнений и изменений в законодательство Республики Узбекистан.

Ключевые слова

искусственный интеллект, юридический документ, юрист, адвокат, судья, авторское право, адвокатская тайна, киберпреступность, персональные данные, конфиденциальность, ответственность.

Kirish

Mavzuga o‘tishdan oldin sun’iy intellekt va huquqiy matnlar o‘zi nima ekanligini aniqlab olishimiz zarur. Sun’iy intellekt deganda, insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish, shu jumladan mustaqil ravishda o‘rganish va yechimlarni izlash hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui tushuniladi. [1] Bundan tushunishimiz mumkinki, sun’iy intellekt insonning vazifalarini bajara oladi. Undan foydalanish orqali insonlarning yumushlari tezroq bitadi va ularning foydali ish koeffitsiyenti ortadi. Ammo bu har doim undan foydalanish zarurligi va unga to‘la ishonish kerakligini anglatmaydi. Huquqiy matnlar deganda, shartnomalar, da’vo arizalari, ishonchnoma, shikoyat va sud qarori kabilarni tushunishimiz mumkin.

Filologiya, tarix, matematika va shu kabi sohalarda u juda samarali foyda beradi. Huquqiy matnlarda esa sun’iy intellekt masalasi ancha qaltis hisoblanadi. Muammoning mohiyati quyidagicha: agar yurist qandaydir huquqiy matnni sun’iy intellekt orqali yozsa va unda qonunga nisbatan nomuvofiqliklar bo‘lganligi sababli uning mijozi zarar ko‘rsa, bunda huquqiy matnni tekshirish kimning majburiyati ekanligi, maxfiylik qanday ta’minlanishi va mualliflik huquqi kimdaligi masalalari kelib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Yuridik hujjatlarda sun’iy intellektdan foydalanish masalasi xalqaro adabiyotlar va hujjatalarda o‘rganilgan. Bu ilmiy maqolada qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik va kazusli metodlardan foydalanildi. AQSH Mualliflik huquqi idorasi tomonidan 2025-yilda

[1] O‘zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonuni 3-moddasi

chiqqan “Copyrightability” hisobotida sun’iy intellektdan olingan asarlarda mualliflik huquqi masalasi yoritilgan. Amerika Bar Assotsiatsiyasi tomonidan sun’iy intellektda yaratilgan va xatoliklarga ega bo‘lgan huquqiy matnlarda javobgarlik kimda ekanligi aytib o‘tilgan. Yevropa Ittifoqining Ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha umumiy reglamenti (GDPR) bo‘yicha sun’iy intellekt foydalanib qaror qabul qilish va bunda inson manfaatlari masalasi tahlil qilindi. Hugenholtz, P. & Quintais, João ning “Yevropa Ittifoqi sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarni himoya qiladimi?” nomli maqolasi ham ko‘rib chiqildi. Mata v. Avianca kazusi ham tahlil qilindi. O‘zbekiston qonunchilik hujjatlari ham bu masalalarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Bular: O‘zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish to‘g‘risidagi, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi, Advokatura to‘g‘risidagi, Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunlari va Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi prezident qarori.

Muhokama

3.1 Muammoning dolzarbligi

Birinchidan, hozirda sun’iy intellektdan foydalanish juda keng tarqalgan. Bundan huquqqa oid matnlarni tayyorlash ham chetda qolmaydi. Sun’iy intellektni boshqa sohalar singari huquq sohasiga olib kirish ham ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilmagan.[2] Buning sababi shuki, hali bu kabi texnologiyalar huquqiy matnlarda qo‘llash uchun to‘liq tayyor deb bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan undan shartnomalar va shunga o‘xshash matnlarni tayyorlashda, ularni tarjima qilishda va tahlil qilishda keng foydalanilmoqda. Lekin u qonunga muvofiq natija ko‘rsatishi aniq emas.

Ikkinchidan, undan foydalanish vaqtni tejaydi. Yuristlar bunday texnologiyalardan foydalanib o‘z vaqtlarini sun’iy intellekt bilan qilib bo‘lmaydigan ishlarni bajarishga sarflashmoqda. Masalan, bir advokatning bugun sud ishi bor. U endi shu sudga ketmoqchi bo‘lganda, bir mijoz kelib unga da’vo arizasi yozib berish kerakligini aytdi. U bu vaziyatdan chiqish uchun sun’iy intellektdan foydalanadi va sud ishiga ham ulguradi. Ammo uni qayta tekshirish masalasi ochiq qoladi.

[2]PQ - Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 3-bandi

Uchinchidan, sun’iy intellektdan foydalanib tarjima qilish. U huquqiy matnlarni tarjima qilayotganda noto‘g‘ri so‘z qo‘llashi mumkin va bu hujjatning ma’nosi o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, shartnoma rus tilidan o‘zbek tiliga sun’iy intellekt orqali tarjima qilindi. Lekin ba’zi so‘zlar o‘zbek tiliga boshqacha tarjima qilindi va shartnomaning mohiyati o‘zgarib ketdi. Endi shartnoma ishtirokchilari o‘rtasida uning qaysi biri huquqiy kuchga egaligi masalasi kelib chiqadi va bu ular o‘rtasida muammolarga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchidan, undan foydalanishda yurist nazoratni ta’minlashi zarur. U qonunga muvofiq bu matnni yaratdimi, inson huquqlariga zid emasmi degan savollarga javob olish uchun uni qayta tahlil qilish juda muhim hisoblanadi.[3]

3.2 Yuzaga keladigan xavflar

Birinchi xavf, maxfiylik sun’iy intellektdan foydalanishda buzilishi mumkin. Fuqaroning huquqiy hujjatida unga doir shaxsiy ma’lumotlar mavjud bo‘ladi va buni sun’iy intellektda qayta ishlash jarayonida uchinchi shaxslarga berilmasligi kafolati yo‘q. Chunki sun’iy intellektni yaratgan tashkilotni o‘zi ham undan foydalanishi mumkin.

Ikkinchi xavf, bu mualliflik huquqining buzilishi. Yurist o‘z mijoziga bu hujjatni sun’iy intellekt orqali tayyorlaganini aytishi zarur. Lekin buni aytsa uning obro‘siga putur yetadi va uni bilimsiz hisoblashadi. Shu sababli, ko‘p hollarda buni xuddi o‘zlari tayyorlagandek mijozga topshirishadi. Ammo O‘zbekistonda sun’iy intellekt orqali tayyorlangan matnlarga nisbatan mualliflik huquqi hozircha mavjud emas.[4]

Uchinchi xavf, sun’iy intellekt huquqiy matnlarni tayyorlashda xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Buning asosiy sababi, huquq tizimi hamma davlatlarda har xil. Ya’ni matematika, geografiya, fizika kabi fanlar butun dunyoda bir xil, lekin huquq emas. Har bir davlatning o‘z qonunchilik tizimi mavjud va bu boshqa davlatlarning huquq tizimidan farq qilishi tabiiy.

To‘rtinchi xavf, tarjimada huquqiy matnning mazmuni buzilishi mumkin. Chunki ba’zi bir huquqiy so‘zlar boshqa tilda aynan o‘zining ma’nosi bilan mavjud emasligi tufayli

[3] O‘zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonuni 71-moddasi
[4] O‘zbekiston Respublikasining Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonun 8-moddasi

sun’iy intellekt shunga mosroq so‘zdan foydalanadi. Natijada bu huquqiy hujjatdan foydalanayotgan tomonlar o‘rtasida kelishmovchiliklar paydo bo‘ladi.

Natijalar

4.1 Qo‘llaniladigan huquqiy normalar

Milliy qonunchilikda yuqoridagi masalalar bo‘yicha bir qancha asoslar mavjud.

Birinchisi, maxfiylik masalasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Advokatura to‘g‘risidagi qonunning 9-moddasida advokatlik siri keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra, mijozning unga murojaat qilganidan tortib, u gapirgan masalalargacha hammasi sir saqlanishi zarur. Bu moddaning 2-qismida esa bunday ma’lumotlar uchinchi shaxslarga berilmasligi shart qilib belgilangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunning 21-moddasiga ko‘ra, shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish uchun u ma’lumotlar tegishli bo‘lgan shaxsdan rozilik olinishi zarur. Sun’iy intellektdan foydalanib mijozga huquqiy hujjat tayyorlashda esa bu norma buzilmoqda. Chunki advokatda bu ma’lumotlar uchinchi shaxslarga oshkor bo‘lmasligiga kafolat yo‘q. Buning oldini olish uchun, mijozga bu haqida aytish va uning roziligini olish shart.

Ikkinchisi, mualliflik huquqi kimda ekanligi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunning 8-moddasida mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmaydigan materiallar ko‘rsatib o‘tilgan. Shu moddaning oxirgi xatboshisida insonning bevosita individual asar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyatini amalga oshirmasdan, muayyan turdagi ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan texnika vositalari yordamida olingan natijalar mualliflik huquqi obyekti hisoblanmasligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ammo bu normada noaniqlik mavjud. Bu qonun 2006-yil qabul qilingan va u paytda sun’iy intellekt degan tushuncha O‘zbekistonda deyarli bo‘lmagan va qonunchilikda ham unga ta’rif mavjud bo‘lmagan. Noaniqlik shunaki, bu normadagi “texnika vositalari” ga sun’iy intellekt ham kiradimi yoki yo‘qligi masalasi aniq bayon etilmagan. Lekin umumiy ma’nosidan kelib chiqsak, hozircha bu shaxsga mualliflik huquqi bermaydi. Yuristning muallifni xuddi o‘zidek ko‘rsatishi va bundan tijorat maqsadida foydalanishi qonunga zid harakat.

Uchinchisi, agar huquqiy matn noto‘g‘ri bo‘lsa, bunga kim javobgar ekanligi masalasi kelib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonunning 71-moddasida axborot resurslarini yaratishda hamda axborot tizimlari ishida sun’iy intellektdan foydalanish shartlari ko‘rsatilgan. Bu moddaning 2-qismiga ko‘ra, insonning huquq va erkinligiga aloqador bo‘lgan yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilish chog‘ida faqat sun’iy intellektdan foydalangan holda yaratilgan axborot resurslari va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlarining xulosalariga tayanish mumkin emas. Bundan shu kelib chiqadiki, agar sun’iy intellekt yaratgan hujjatda qonunga zidlik mavjud bo‘lsa va buni yurist tekshirmasdan mijozga topshirsa, yurist javobgar bo‘ladi.

4.2 Xorijiy yondashuvlar

Bu qismda bir qancha xorijiy tajribalarni ko‘rib chiqamiz.

Birinchi huquqiy matnlarda xato bo‘lsa, bunga kim javobgarligi masalasidan boshlaymiz. Amerika Bar Assotsiyatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, sudga taqdim etilgan hujjatning imzo qismida advokatning ismi ko‘rsatilgan bo‘lsa, u hujjatdagi huquqiy manbalarning to‘g‘riligini ta’minlash uchun javobgar hisoblanadi. Bu javobgarlik hatto boshqa shaxsga topshiriq berish, e’tiborsizlik yoki sun’iy intellektga ishonish natijasida yuzaga kelganidan qat’i nazar saqlanib qoladi.[5] Bunga AQSH da yuz bergan “ Mata v. Avianca 2023 case” ni misol qilishimiz mumkin. Bu sud ishida Roberto Mata ismli yo‘lovchi Avianca aviakompaniyasiga qarshi da’vo kiritgan. Bunga sabab, unga parvoz vaqtida xizmat ko‘rsatish aravachalaridan biri urilgan. Uning da’vo arizasida advokat Steven Schwartz sun’iy intellektdan foydalangan va uning ishini qayta tahlil qilmagan. Arizada esa hayotda mavjud bo‘lmagan presedentlar ko‘rsatib o‘tilgan. Bu ishi uchun sudya advokatga moliyaviy sanksiya qo‘llagan.[6] Yevropa Ittifoqining Ma’lumotlarni

[5]Rudolph, A. T. (2026). GenAI and the ethical lawyer: Same standards, different dilemmas Part II—How courts are enforcing the duty of candor. American Bar Association. https://www.americanbar.org/groups/litigation/resources/newsletters/professional-liability/generative-ai-ethical-lawyer-standards-different-dilemmas-part-2/

[6]Mata v. Avianca, Inc., No. 22-cv-1461 (PKC), 678 F. Supp. 3d 443 (S.D.N.Y. June 22, 2023). https://www.nhd.uscourts.gov/sites/default/files/pdf/Mata-v-Avianca-sanctions-order

himoya qilish bo‘yicha umumiy reglamenti (GDPR) 22-moddasi 1-qismi sud qarorlariga nisbatan mos keladi. Unga ko‘ra, inson o‘z huquq va manfaatlariga ta’sir ko‘rsatadigan qaror faqat sun’iy intellekt yoki avtomatlashtirilgan tizim tomonidan, inson ishtirokisiz qabul qilinishiga qarshi turish huquqiga ega. Bundan shu kelib chiqadiki, sudyalar ham o‘z qarorlari uchun javobgar va faqat sun’iy intellektdan olgan ma’lumotlarni qayta tahlil qilishsiz insonga qo‘llashga haqli emas.[7]

Endi mualliflik masalasini tahlil qilamiz. Yevropa Ittifoqi mualliflik huquqiga ko‘ra, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan asar mualliflik huquqi bilan himoya qilinishi uchun to‘rtta shart bajarilishi zarur. Bular: asar adabiy, ilmiy yoki badiiy sohada yaratilgan bo‘lishi, insonning intellektual mehnati mahsuli bo‘lishi, ijodiy tanlovlar orqali yuzaga kelishi va bu yaratilgan natijada o‘z ifodasini topishi zarur. Buyuk Britaniya, Irlandiya, Yangi Zellandiya va Janubiy Afrika kabi davlatlarda inson muallifligini aniqlash imkoni bo‘lmagan hollarda “kompyuter orqali yaratilgan asarlar” muallifligi belgilanadi. Bunda mualliflik huquqi va undan kelib chiqadigan mulkiy huquqlar asar yaratilishi uchun tashkiliy choralarni ko‘rgan shaxsga beriladi.[8] AQSH Mualliflik huquqi idorasi 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, ko‘plab hollarda sun’iy intellekt yaratgan natijalar to‘liq yoki qisman mualliflik huquqi bilan himoyalanishi mumkin. Bu, asosan, sun’iy intellekt yordamchi vosita sifatida qo‘llanilganda va asosiy ifodaviy elementlar inson tomonidan mustaqil ravishda belgilangan holatlarda namoyon bo‘ladi. Biroq, faqat sun’iy intellektga berilgan promptlar ushbu talablarni qondirish uchun yetarli emas.[9]

4.3 Takliflar

Birinchi taklif, O‘zbekiston Respublikasining Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonun 8-moddasini aniqlashtirish kerak. Buning uchun 81-modda qo‘shish va uni sun’iy intellekt orqali yaratilgan asarlarga mualliflik huquqi berish shartlari deb nomlash zarur. Unda agar asar faqat prompt berish orqali emas, balki insonning ijodiy

---

[7]Article 22 GDPR: Automated individual decision-making, including profiling. https://gdpr-info.eu/art-22-gdpr

[8]Hugenholtz, P. & Quintais, João. (2021). Copyright and Artificial Creation: Does EU Copyright Law Protect AI-Assisted Output?. IIC - International Review of Intellectual Property and Competition Law. 52. 1190-1216. 10.1007/s40319-021-01115-0.

[9]U.S. Copyright Office. (2025, January). Copyright and artificial intelligence, Part 2: Copyrightability. https://www.copyright.gov/ai/Copyright-and-Artificial-Intelligence-Part-2-Copyrightability-Report.pdf

yondashuvlari orqali yaratilgan va sun’iy intellekt faqat yordamchi vaziasini o‘tagan bo‘lsa, bunday asarlarga mualliflik huquqi berilishi ko‘rsatilishi kerak.

Ikkinchi taklif, O‘zbekiston Respublikasi Advokatura to‘g‘risidagi qonunning 7-moddasiga qo‘shimcha qo‘shish zarur. Advokat mijozga xizmat ko‘rsatishda sun’iy intellektdan foydalanganini, qayta tahlil qilganidan qat’i nazar, ma’lum qilsin va mijozdan oladigan mablag‘ni ham shunga mutanosib ravishda olsin.

Uchinchi taklif, O‘zbekiston Respublikasi Sudlar to‘g‘risidagi qonunning 62-moddasiga qo‘shimcha kiritish zarur. Sudya qaror qabul qilishda va sud qarori tayyorlashda sun’iy intellektdan ma’lumot olsa, uni qayta tekshirishga majbur ekanligi belgilansin.

To‘rtinchi taklif, O‘zbekiston Respublikasi Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risidagi qonunning 19-moddasiga qo‘shimcha kiritish kerak. Unga ko‘ra, insonlarning ma‘lumotlari sun‘iy intellektda qayta ishlanganda ulardan rozilik olish shart etib belgilansin.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yurist huquqiy matlar tayyorlashda sun’iy intellektdan foydalanishini cheklash shart emas, ammo bir qancha talablar qo‘yish zarur. Jumladan, uni qayta tahlil qilish, mijozga bu haqida aytish va bu hujjat sun’iy intellekt yordamida yaratilganidan qat’i nazar yurist javobgar bo‘lishi kabi talablar bajarilishi zarur. Mualliflik huquqi ham berilishi zarur, ammo faqat prompt orqali olingan natija bundan mustasno. Sun’iy intellekt faqat yordamchi vosita bo‘lsa va asosiy ijodiy mehnat inson tomonidan amalga oshirilsa, bu holatda mualliflik huquqi kelib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonuni

2. PQ - Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

3. O‘zbekiston Respublikasining Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonun

4. O‘zbekiston Respublikasi Advokatura to‘g‘risidagi qonun

5. O‘zbekiston Respublikasi Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risidagi qonun

6. Rudolph, A. T. (2026). GenAI and the ethical lawyer: Same standards, different dilemmas Part II—How courts are enforcing the duty of candor. American Bar Association

7. Mata v. Avianca, Inc., No. 22-cv-1461 (PKC), 678 F. Supp. 3d 443 (S.D.N.Y. June 22, 2023)

8. Article 22 GDPR: Automated individual decision-making, including profiling

9. Hugenholtz, P. & Quintais, João. (2021). Copyright and Artificial Creation: Does EU Copyright Law Protect AI-Assisted Output?

10. U.S. Copyright Office. (2025, January). Copyright and artificial intelligence, Part 2: Copyrightability